




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



## KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayapti.

Jumladan, 2024- yil 1- oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 12 109 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 9 976 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 21 326 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 foizni tashkil etdi.

### Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

( 1- oktabr holatiga)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar  
( 2024- yil yanvar-sentabr holatiga )**


2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 574 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,0 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,3 foiz, sanoat – 14,5 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida – 20,6 foiz, Mirzaobod – 10,9 foiz, Oqoltin – 10,2 foiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**




## (2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 12 109 tani tashkil etdi, ulardan 10 042 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,2 foiz, sanoat – 10,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 16,3 foiz, qurilish – 7,0 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Guliston shahrida – 23,1 foiz, tumanlardan Sirdaryo – 12,4 foiz, Boyovut – 9,0 foiz, Mirzaobod – 8,7 foiz va Sardobada – 8,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 525 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 522 ta;
- yirik korxonalar 3 tani tashkil etdi.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Guliston sh.	304
Mirzaobod	169
Oqoltin	159
Sardoba	154
Sirdaryo	153
Guliston	141
Boyovut	131
Sayxunobod	103
Xovos	98
Yangiyer sh.	93
Shirin sh.	20

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 10 042 tani tashkil etdi, ulardan 9 976 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,5 foiz, sanoat – 12,9 foiz, qurilish – 8,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,2 foiz.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)





### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## (2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.


Shunda, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 74 tadan 139 taga (o‘sish 65 taga), axborot va aloqa – 36 tadan 57 taga (o‘sish 21 taga) ko‘paydi.

**Yillar kesimida soni***(birlikda)***Hududlar kesimida soni***(birlikda)***Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni***(birlikda)*


(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (22,4 foiz), Sirdaryo (12,5 foiz), Sardoba (9,0 foiz) va Mirzaobod (8,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 52,8 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## 2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil 1- oktabr holatiga)


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Sardoba (17,7 foiz), Mirzaobod (15,2 foiz) va Oqoltin (14,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)

Sardoba	350
Mirzaobod	301
Oqoltin	293
Sayxunobod	244
Guliston	185
Boyovut	178
Sirdaryo	167
Xovos	143
Guliston sh.	73
Yangiyer sh.	33
Shirin sh.	11

**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 10,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,6 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Guliston sh.	247
Sirdaryo	223
Yangiyer sh.	151
Boyovut	144
Mirzaobod	116
Sayxunobod	110
Xovos	93
Guliston	84
Sardoba	59
Oqoltin	47
Shirin sh.	30

## Yillar kesimida soni (birlikda)




**(2024-yil 1-oktabr holatiga)**




O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 52,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 26,8 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 3 775 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Guliston sh.	986
Sirdaryo	499
Sardoba	349
Guliston	330
Boyovut	325
Yangiyer sh.	294
Mirzaobod	262
Oqoltin	230
Sayxunobod	222
Xovos	195
Shirin sh.	88

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



## **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

**(2024- yil 1- oktabr holatiga)**

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 657 taga yetib, ularning 654 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,9 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 95,1 foiz ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Guliston sh.	164
Sirdaryo	91
Yangiyer sh.	66
Boyovut	65
Guliston	55
Sayxunobod	49
Oqoltin	47
Sardoba	38
Mirzaobod	36
Xovos	35
Shirin sh.	11

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



Oziq-ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha  
xizmatlar

32

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024- yil 1- oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 66,1 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 31,1 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,8 foizni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Guliston sh.	70
Yangiyer sh.	23
Boyovut	20
Sirdaryo	18
Guliston	13
Xovos	8
Shirin sh.	8
Oqoltin	6
Mirzaobod	6
Sardoba	5
Sayxunobod	3

### Yillar kesimida soni

(birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish,  
maslahat berish va boshqa  
yordamchi xizmatlar

62

57

Aloqa



Noshirlik faoliyati

32

24

Axborot xizmati  
ko'rsatish  
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion  
dasturlar, fonogrammalar va  
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

4

1

Dasturlar yaratish bo'yicha  
faoliyat va teleko'rsatuv  
va radioeshittirish



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 140 ta yoki 74,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 91,0 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,6 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,4 foizini tashkil etdi.


### Hududlar kesimida soni

(birlikda)


Guliston sh.	78
Sirdaryo	33
Yangiyer sh.	21
Sayxunobod	10
Sardoba	9
Guliston	8
Oqoltin	7
Mirzaobod	7
Xovos	7
Boyovut	6
Shirin sh.	3

### Yillar kesimida soni

(birlikda)




Sog'liqni saqlash  
sohasidagi  
faoliyat



Yashash uchun joy  
bilan ta'minlangan  
holda parvarishlash

5



Yashash uchun joy bilan  
ta'minlanmagan  
holda ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**


Guliston sh.	63
Xovos	40
Sirdaryo	38
Yangiyer	33
Mirzaobod	31
Sayxunobod	24
Boyovut	21
Oqoltin	12
Guliston	9
Shirin sh.	8
Sardoba	7

2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 72,0 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 24,8 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni;

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



9

Pochta va kuryerlik



71

Omchor xo'jaligi va yordamchi  
transport faoliyati



206

Quruqlikdagi va quvur transporti



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot**

*(2024- yil 1- oktabr holatiga)*

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan  
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

**8 602**

**mas'uliyati cheklangan  
jamiyat**

**85,7**

**961**

**xususiy korxonalar**

**9,6**

**293**

**oilaviy korxonalar**

**2,9**

**11**

**aksiyadorlik jamiyat**

**0,1**

**175**


**boshqalar**

**1,7**

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**




(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)


Amaldagi 10 042 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- oktabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 8 602 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,7 foiz, sanoat – 12,2 foiz, qurilishda – 8,6 foiz.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




## (2024- yil yanvar-sentabrholatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




### Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024- yil 1- oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Guliston shahrida – 314 ta, Boyovut – 118 ta va Sirdaryoda – 99 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 412 ta, sanoat – 109 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 109 ta va qurilish sohasida – 93 ta.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)




## (2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




## (2024- yil 1- oktabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 293 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 31,1 foiz, sanoat – 30,7 foiz, qishloq, savdoda – 24,9 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Guliston shahar – 20,1 foiz, Guliston – 17,1 foiz va Boyovut tumanida – 16,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


### Yillar kesimida soni

(birlikda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantrishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliшhlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Xovos (17,7 foiz), Boyovut (14,8 foiz) va Sirdaryo (14,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Xovos	717
Boyovut	597
Sirdaryo	595
Sardoba	522
Guliston	497
Sayxunobod	437
Mirzaobod	338
Oqoltin	329
Yangiyer sh.	8
Guliston sh.	5

## Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chovchilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

3 899



Baliq ovlash va akvakultura

144



5

2

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash



**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona  
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 131,8 foizni tashkil etdi.


**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**



# Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

25

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 219 ta korxonalardan 82 tasi qo'shma korxonalar va 137 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

### qo'shma korxonalar

- 1** Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- 1** Axborot va aloqa
- 16** Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- 5** Tashish va saqlash
- 2**

### xorijiy korxonalar

- 11** Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- 46** Sanoat
- 60**
- 4** Qurilish
- 2**
- 12** Savdo
- 33**

Boshqa turlar  
1 8



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,2 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 72 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 32,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,1 foiz), Turkiya (ulushi 12,3 foiz), Tojikiston (ulushi 9,6 foiz) va Qozog'iston (ulushi 8,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo 25,1 foiz, Guliston shahar – 20,1 foiz, Yangiyer shahar – 15,1 foiz va Mirzaobodga – 10,5 foiz to'g'ri keladi.

## qo'shma korxonalar

27

Sirdaryo

28

17

Guliston sh.

8

Yangiyer sh.

11

Mirzaobod

3

Xovos

3

Sardoba

## xorijiy korxonalar

11

Boyovut

2

Sayxunobod

3

Guliston

2

Oqoltin

3

Shirin sh.

3

1



**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomaga tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- oktabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston  
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida,  
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,  
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

